



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 506 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
<i>Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
<i>Inoyatova Zulfiya Xamdamovna</i>	
Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
<i>Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi</i>	
Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish	203
<i>Kayumov Oybek Achilovich</i>	
Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
<i>Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
<i>Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna</i>	
Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish	214
<i>Rayimova Shahlo Sobirjon qizi</i>	
STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari	217
<i>Toshev Elbek Choriyevich</i>	
Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
<i>Usmanov Botir Allaberdiyevich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni	230
<i>Xodiyeva Dilrabo Pirimovna</i>	
Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education	233
<i>Yunusova Nodira Akhmadjanovna</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	237
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
The Psychological Impact of Social Media on Youth	242
<i>Dilfuza Qarshiboyeva</i>	
Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	246
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>	
Dizartriyali bolalar monologik nutqini innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	250
<i>Pardayeva Muxlisa</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida bilish jarayonlarning ahamiyati.....	257
<i>Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi</i>	
Enhancing the Professional Competence of English Language Teachers.....	259
<i>Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda montessori metodi bo'yicha sezgir davrlar	264
<i>Tojiakhmedova Maftuna Umarjon qizi</i>	
“Personal learning assistant” vositalari asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimidagi zamonaviy tendensiyalar tahlili.....	268
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Turobova Ro'zoy Bekmurotovna, Xayrullayev Mo'minbek Anvar o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	272
<i>Ravshanova Dildora Sagdullayevna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida elektron axborot-ta'lim muhitining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi.....	279
<i>Temurov Sobirjon Yo'ldoshevich</i>	
Zamonaviy ta'lim menejmentida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati (boshlang'ich ta'lim misolida) ..	283
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligida qadriyatlar tarbiyasining amaliy asoslari	286
<i>Xaydarova Mavluda Mo'ydinjon qizi</i>	



Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari va samarali shakllari.....	292
<i>G'oziyeva Mohlaroyim Qodirxon qizi</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning (aqliy nuqson) ovqatlanish tartibi	295
<i>Sh. M. Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida imlo savodxonligini oshirishda geymifikatsiya o'yini orqali samarali tashkil etish	299
<i>Mergenbaeva Asiya Erkebaevna</i>	
Musiqqa o'qituvchisining pedagogik muloqatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	304
<i>S. M. Raxmonberdiyeva</i>	
Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish darslarida zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini rivojlantirish	307
<i>Abdulxamidova Gulnoza</i>	
Ispaniya davlati ijtimoiy hayoti, madaniyati va o'ziga xos ta'lim tizimi	311
<i>Umarova Malika Xisabidinovna, Sabirova Nodira Ibrohimovna</i>	
Ertaklardagi so'zlardan foydalangan holda nutqi rivojlanmagan bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasi	316
<i>G'opporova Mahliyoxonim</i>	
Tarbiya fanida hadislar va milliy qadriyatlarni integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari	319
<i>Axmedov Boburjon Vasikovich</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida o'quv-biluv kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari	324
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Mustaqil ta'lim olish faoliyati tushunchasining pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilmasi (fizika fani bo'yicha).....	328
<i>Esanmurodov Otamurod Boboqand o'g'li</i>	
Oliy ta'limda immersiv yondashuvning mohiyati.....	333
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Jontemirova Nozima Abdijabbor qizi</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlari tizimida sportchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	337
<i>Yigitaliyev A. F.</i>	
Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida o'quvchilarning harakat faolligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari.....	343
<i>D. R. Abdusalomov</i>	
Futbolchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi...	348
<i>Mirbabayev Muzaffar Ismatillayevich</i>	
Empirik tushunchalar va ularning hospital pedagogikadagi pedagogik-psixologik roli	353
<i>Sapayeva Mavluda Shanazarovna</i>	
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash va huquqiy himoya.....	357
<i>Ibragimova Feruza Bahodirxonovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida kongruentlik kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.....	362
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini tashkil etish	366
<i>Raximov Farxod Maxmudovich</i>	
Haqiqiy materiallardan foydalangan holda o'qishni o'rgatish	370
<i>Axmedov Husen Uzairovich</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion va fiziologik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	376
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasi.....	380
<i>Nazarov Zokir Abdurahmonovich</i>	
Tafakkur va mantiqiy fikrlash bo'lajak pedagog shaxsining nutq madaniyati omili sifatida	383
<i>A. Sh. Jumayev</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida turizm vositasida tolerantlikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	386
<i>Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi</i>	

Zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	390
<i>Asobayeva Noila Samatovna</i>	
Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish	395
<i>Axmedova Zebixon Siddikovna</i>	
Talaba shaxsini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qo'yilgan pedagogik talablar	399
<i>Boliyev Uchqun Ismatovich</i>	
Translation of Phraseological Units in Mass Media Texts.....	402
<i>Eshmurodova Ziyodaxon Urinbayevna</i>	
Phraseologisms in Modern Russian: A Corpus-Based Analysis of Structural, Semantic, and Functional Dynamics	405
<i>Farkhod Kholmatov</i>	
Yosh sportchilarda sprinterlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin uslubidagi mashqlarning o'rni.....	413
<i>G'oibov Yusufali Buxoraliyevich</i>	
Imitatsion mashqlarni nutqni avtomatizatsiyalash jarayonida qo'llash metodikasi	417
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
1879-1894-yillarda yevropa va aqshdagi asos soluvchi laboratoriyalar evolyutsiyasi orqali eksperimental psixologiya genezisining qiyosiy-tarixiy tahlili.....	420
<i>Haydarov Farhod Ilnazarovich</i>	
Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	423
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>	
Bolalarda gigiyeniya qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	427
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Kasbiy refleksiya va portfolio metodining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	430
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna, Kamoliddinova Mahliyoxon Zohidjon qizi</i>	
Практическая работа по развитию логического мышления учащихся начальных классов через дидактические игры	433
<i>Отажонов Ж. М., Мамарасулова М. А.</i>	
Umumta'lim maktablarida "tarbiya" fanini o'qitish jarayonida mavjud muammolar, ularning sabablari va takomillashtirish yo'llari.....	436
<i>Mamirova Shaxnoza Xudoyqulovna</i>	
Word Formation and Vocabulary Enrichment in Modern English and Uzbek Languages	440
<i>Muminova Feruza Muratdjanovna</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari	443
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
Shaxs taraqqiyotining turli bosqichlarida refleksiyaning rivojlanishi	447
<i>N. I. Xalilova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	450
<i>Omanqulova Shohida Nematillo qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvning uyg'unligi	455
<i>O'tkirova Zuhaxon Ahmedjanovna</i>	
Developing Listening and Speaking Skills in Middle School	458
<i>Rakhmonova Dilrabokhon Salokhiddin kizi</i>	
Bolalarda gigiyena qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	461
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Avlodlar nazariyalari haqidagi mulohazalarning nazariy tahlili: baby boomerlar, X, Y, Z avlodlari.....	464
<i>Umarova Sitora Muxlisovna, Sharifova Mahtob Murodjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	467
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Sofoyeva Oysha Davlatyorovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rgatishning samarali metodlari.....	470
<i>Solijonova Mavluda Zokir qizi</i>	



Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	472
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'limda talabalarning harbiy ko'nikmalarini shakllantirishda psixologik omillarning o'рни.....	477
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich</i>	
Bolalarning jismoniy faolligini oshirish va jismoniy rivojlantirish bo'yicha noan'anaviy jismoniy mashqlarning ahamiyati	480
<i>Xalmatova Nasiba Bozorboyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirish muammolari	485
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish ..	488
<i>Yuldoshova Mehriniso Ochildiyevna</i>	
Hosila va uning tatbiqlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar	491
<i>Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li</i>	
Развитие речи у детей как ключевой фактор формирования личности.....	496
<i>Дустова Дилдора Собиржановна</i>	
Boshlang'ich sinflarda geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	498
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	
Дидактические основы подготовки будущих педагогов к лекционной деятельности.....	501
<i>Нодира Азаматова</i>	



EMPIRIK TUSHUNCHALAR VA ULARNING GOSPITAL PEDAGOGIKADAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ROLI

UDK: 376.1-056.24 + 37.015.3

Sapayeva Mavluda Shanazarovna

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
 "Mehrlri maktab" davlat ta'lim muassasasi pedagog xodimi

Annotatsiya: Gospital pedagogikasi sharoitida empirik tushunchalarning pedagogik-psixologik roli tahlil qilinadi. Og'ir xastalikka chalingan bolalar bilan ishlashda bevosita kuzatuv, tajriba va art-terapiya kabi amaliy metodlarning ahamiyati yoritiladi. Gospital sharoitidagi o'quv jarayoni moslashuvchanlik prinsipiga asoslanishi lozimligi asoslanadi, o'qituvchi tomonidan to'planadigan empirik ma'lumotlar bolaning klinik holatiga mos ravishda ta'lim mazmunini korreksiya qilishga xizmat qilishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: gospital pedagogika, empirik bilim, moslashuvchan ta'lim, klinik kuzatuv, art-terapiya, rehabilitatsiya, kognitiv faollik, individual yondashuv.

Abstract: The pedagogical and psychological role of empirical concepts within the framework of hospital pedagogy is analyzed. The importance of practical methods such as direct observation, experimentation, and art therapy in working with seriously ill children is highlighted. The necessity of basing the educational process on the principle of flexibility in hospital settings is substantiated, where empirical data collected by the teacher enable the adjustment of educational content in accordance with the child's clinical condition.

Key words: hospital pedagogy, empirical knowledge, flexible education, clinical observation, art therapy, rehabilitation, cognitive activity, individual approach.

Аннотация: Анализируется психолого-педагогическая роль эмпирических понятий в контексте госпитальной педагогики. Раскрывается значимость практических методов, таких как непосредственное наблюдение, эксперимент и арт-терапия, при работе с тяжёлобольными детьми. Обосновывается необходимость принципа гибкости учебного процесса в условиях стационара, где эмпирические данные, собираемые педагогом, позволяют корректировать содержание обучения в соответствии с клиническим состоянием ребёнка.

Ключевые слова: госпитальная педагогика, эмпирические знания, гибкое обучение, клиническое наблюдение, арт-терапия, реабилитация, когнитивная активность, индивидуальный подход.

KIRISH

Ilmiy bilish jarayoni murakkab iyerarxik tuzilishga ega bo'lib, u hissiy, empirik va nazariy darajalarni qamrab oladi. Empirik bilimlar – bu bevosita kuzatish, tajriba, so'rovnom va boshqa amaliy usullar orqali to'plangan faktik axborotlar majmuasidir. Sh.J. Yusupova ta'kidlaganidek: "Ilmiy tadqiqotlar yo ilm-fanning nazariy-metodologik masalalariga yoki ijtimoiy taraqqiyot talablariga muvofiq o'tkaziladi. Birinchisi sof ilmiy-nazariy xarakterga, ikkinchisi esa empirik mohiyatga egadir" ^[10].

Shuningdek, empirik ma'lumotlardan samarali foydalanish nafaqat ilmiy natijalarning aniqligini oshiradi, balki ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi ^[1].

Gospital pedagogika sohasida empirik yondashuv alohida strategik ahamiyatga ega. Bolada onkologik yoki boshqa og'ir xastalikning mavjudligi uning rivojlanishi uchun o'ziga xos (ekstremal) kontekstni yuzaga keltirib, "ruhiy hayotining barcha sohalariga: kognitiv, shaxsiy, emotsional, kommunikativ va motivatsion-ehtiyoj sohalariga ta'sir qiladi" ^[4]. Bunday sharoitda faqat umumiy pedagogik nazariyalarga tayanib bo'lmaydi, chunki har bir bolaning klinik manzarasi va kasallikka bo'lgan shaxsiy reaksiyasi alohida yondashuvni talab qiladi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, gospital sharoitidagi o'quv jarayoni moslashuvchanlik prinsipiga asoslanishi lozim. Bunda o'qituvchi tomonidan to'planadigan empirik bilimlar (bolaning dars paytidagi chidamliligi, diqqati va kayfiyati) ta'lim mazmunini korreksiya qilishga yordam beradi. B. Xodjayev qayd etganidek, pedagogik tadqiqotlar metodologiyasida obyektini bevosita o'rganish nazariy gipotezalarni hayotiy amaliyot

bilan bog'lash imkonini beradi ^[9]. Shu tariqa, empirik tushunchalar gospital pedagogikasida og'ir xastalikka chalingan bolaning shaxsiga yo'naltirilgan reabilitatsion-ta'lim muhitini yaratishning fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Empirik bilimlar va ularning pedagogik jarayondagi o'rni masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Alimova A.H. empirik ma'lumotlarni ilmiy bilishning asosiy manbai sifatida talqin qilib, ularning ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi amaliy ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Yusupova Sh.J. esa empirik materiallarni yig'ish va tahlil qilish ilmiy faoliyatning muhim bosqichi ekanligini ko'rsatib, ular orqali pedagogik jarayonni real sharoitlarga moslashtirish mumkinligini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, empirik yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishda empirik yondashuvning ahamiyati Mavlonova R.A. tomonidan ham keng yoritilgan bo'lib, u ta'lim metodlari va vositalarini o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish zarurligini qayd etadi.

Xodjaye B. va hammualiflar pedagogik tadqiqotlar metodologiyasida empirik kuzatuv va tajriba usullarining nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashdagi rolini asoslab beradi. Bu qarashlar gospital pedagogika sharoitida ayniqsa muhim bo'lib, o'quv jarayonini bolaning sog'lig'i va psixologik holatiga mos ravishda tashkil etishni talab qiladi.

Psixologik tadqiqotlarda empirik yondashuvning ahamiyati G'oziyev E.G' hamda Nishanova Z.T. asarlarida chuqur tahlil qilingan. Ular bilish jarayonlari, xususan diqqat, xotira va tafakkurning tashqi omillar ta'sirida o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Boymurodov N. amaliy psixologiya doirasida empirik metodlar yordamida shaxsning ichki kechinmalarini aniqlash va ularni korreksiya qilish imkoniyatlarini yoritadi. Ushbu ilmiy qarashlar gospital sharoitida bolalarning emotsional va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Gospital pedagogika kontekstida empirik yondashuvning o'ziga xos jihatlari Kurtanova Yu.E. va hammualiflar tomonidan o'rganilgan bo'lib, og'ir kasallikka chalingan bolalarda kognitiv, emotsional va ijtimoiy sohalarida yuzaga keladigan o'zgarishlar ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar uzoq muddatli davolanish jarayonining bola psixikasiga ta'sirini ochib berib, ta'lim jarayonida individual yondashuv va moslashuvchan metodlarning zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, psixologiya va pedagogika asoslariga oid ilmiy manbalarda empirik kuzatuv va diagnostika usullarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli alohida ta'kidlanadi.

Bilish jarayonining turli darajalari o'rtasidagi bog'liqlik masalasi O'rozov Sh. va hammualiflar tomonidan tahlil qilinib, hissiy, empirik va nazariy bilishning o'zaro uyg'unligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Ushbu yondashuv empirik bilimlarning nazariy bilimlarni boyitish va amaliy faoliyatga tatbiq etishdagi o'rnini aniqlashtiradi. Natijada, empirik tushunchalar pedagogik va psixologik jarayonlarni chuqur anglash, shuningdek, gospital pedagogika sharoitida samarali ta'lim muhitini yaratishda muhim ilmiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar gospital pedagogika sharoitida bevosita kuzatuv, suhbat, amaliy topshiriqlar va art-terapiya jarayonlari orqali yig'ildi. Kuzatuv metodi yordamida bolalarning dars jarayonidagi faolligi, diqqat darajasi va emotsional holati muntazam qayd etildi, suhbat orqali esa ularning ichki kechinmalari va motivatsion holati aniqlandi. Amaliy faoliyat jarayonida bajarilgan topshiriqlar natijalari orqali o'quvchilarning kognitiv rivojlanish darajasi baholandi. To'plangan ma'lumotlar sifat jihatdan tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi hamda individual holatlar kesimida taqqoslandi. Shuningdek, empirik natijalar asosida umumlashtirish va interpretatsiya usullari qo'llanilib, pedagogik ta'sir samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gospital pedagogikada empirik tushunchalarning pedagogik jihati o'qituvchining dars jarayonidagi bevosita kuzatuvlari va metodik moslashuvchanligi bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur jarayonda o'qituvchi bolaning jismoniy chidamliligi va diqqat konsentratsiyasini muntazam tahlil qilib boradi, bu esa "moslashuvchan ta'lim" modelini shakllantiradi.

R.A. Mavlonovanning ta'kidlashicha, pedagogik jarayonning muvaffaqiyati ta'lim vositalari va metodlarining o'quvchi imkoniyatlariga qanchalik mos kelishiga bog'liq ^[5]. Shuning uchun gospital maktab o'qituvchisi bolaning klinik holatidagi o'zgarishlarni empirik qayd etib, o'quv yuklamasini zudlik bilan korreksiya qilishi zarur. Bunday yondashuv bolaning charchab qolishining oldini oladi va o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.



B. Xodjayevning metodologik ko'rsatmalariga ko'ra, obyektни bevosita o'rganish nazariy gipotezalarni hayotiy amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi ^[9]. Shu tariqa, pedagogik kuzatuv darsning har bir daqiqasini bolaning salomatlik darajasiga moslashtirishga xizmat qiladi.

Empirik bilimlar gospital ta'lim muhitida nafaqat bilim berish, balki o'quvchining kognitiv faolligini boshqarishda ham muhim instrument vazifasini o'taydi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda bolaning diqqati va xotirasi kabi bilish jarayonlari klinik omillar ta'sirida o'zgaruvchan bo'lishi E.G'. G'oziyev tomonidan alohida qayd etilgan ^[3].

O'qituvchi empirik materiallarni to'plash orqali har bir bemor-o'quvchining individual-tipologik xususiyatlarini aniqlaydi va dars mazmunini shu asosda boyitadi. Moslashuvchan ta'lim tizimi doirasida o'quv materialining qiyinlik darajasi bolaning o'sha paytdagi ruhiy va jismoniy quvvatiga qarab turlicha belgilanishi mumkin.

Sh.J. Yusupova yozganidek, empirik materiallar tadqiqot (yoki dars) maqsadiga faol ta'sir etishi, hatto uni butunlay o'zgartirishi ham mumkin ^[10]. Bu dinamizm dars jarayonini quruq sxemalardan xalos etib, uni jonli va natijador muloqotga aylantiradi. Pedagogik-psixologik eksperimentlar shuni ko'rsatadiki, bolaning jismoniy holatini hisobga olgan holda o'tkazilgan mashg'ulotlar unda o'z-o'ziga ishonch tuyg'usini mustahkamlaydi ^[8].

Empirik tushunchalarning psixologik jihati bolaning kasallik fonidagi emotsional holati, qo'rquvlari va ichki kechinmalarini chuqur anglashga qaratilgan. Og'ir xastalikka chalingan bolalarda uzoq muddatli gospitalizatsiya natijasida kognitiv, shaxsiy, emotsional va motivatsion sohalarda jiddiy o'zgarishlar yuzaga kelishi ilmiy isbotlangan ^[4]. Bunday murakkab vaziyatda empirik kuzatuv usullari, ayniqsa art-terapiya natijalari va psixologik suhbatlar bolaning ichki dunyosini ochib beruvchi asosiy manba hisoblanadi.

N. Boymurodov ta'kidlaganidek, amaliy psixologik metodlar orqali bolaning qo'rquvlarini aniqlash uning reabilitatsiya jarayonini jadallashtiradi ^[2]. Chizilgan rasmlar yoki yasalgan shakllar orqali bola o'zining og'riqli hislarini namoyon etadi, bu esa pedagogga uning motivatsiyasini qanday tiklash haqida aniq yo'nalish beradi.

Z.T. Nishanovning fikricha, o'quvchining emotsional barqarorligi uning pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi bosh omildir ^[6].

Shunday qilib, psixologik mazmundagi empirik ma'lumotlar bolaning kasallikni yengishga bo'lgan irodasini shakllantirishda poydevor bo'ladi.

Psixologik motivatsiyani shakllantirishda empirik yondashuv bolaning faqatgina bemor emas, balki faol o'quvchi ekanligini his qilishiga yordam beradi. Gospital sharoitida o'tkaziladigan muntazam psixofiziologik kuzatuvlar bolaning ijtimoiy deprivatsiya asoratlaridan qutilishiga xizmat qiluvchi korreksion ishlar uchun asos bo'ladi ^[4].

A.H. Alimova qayd etganidek, empirik ma'lumotlardan samarali foydalanish amaliy qo'llanish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim samaradorligini kafolatlaydi ^[1]. O'qituvchi va psixolog hamkorlikda to'plagan empirik dalillar asosida bolaning qiziqishlari va intilishlariga mos keladigan loyihalar ishlab chiqiladi. Bu jarayonda bolaning har bir kichik muvaffaqiyati uning umumiy salomatligi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ijobiy emotsiyalar kognitiv jarayonlarni stimullaydi ^[7]. Empirik materiallar asosida ishlab chiqilgan individual reabilitatsiya dasturi bolani ijtimoiy hayotga qaytarishning eng samarali yo'lidir. Qisqa qilib aytganda, empirik tushunchalar gospital pedagogikasida o'qituvchiga bolaning ruhiy dunyosini tushunish va unga mos ta'limiy yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Gospital pedagogikada qo'llaniladigan empirik metodlar orasida klinik kuzatuv markaziy o'rinni egallaydi. Bu metod o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni, balki bolaning tibbiy muolajalar ta'sirida o'zgaruvchan holatini doimiy nazorat qilishni talab etadi. Masalan, bolaning dori qabul qilgandan keyingi jismoniy holati, uyquchanligi yoki aksincha, qo'zg'aluvchanligi uning o'quv materialini o'zlashtirish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Empirik kuzatuv orqali pedagog dars vaqtini va yuklamasini bolaning energetik resursiga qarab belgilaydi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini davolash jarayoniga zarar yetkazmagan holda, uning ajralmas qismi sifatida tashkil etish imkonini beradi.

Pedagogik diagnostika gospital sharoitida an'anaviy testlar yoki qat'iy imtihonlar ko'rinishida emas, balki amaliy topshiriqlarni bajarish jarayoni orqali amalga oshiriladi. Kasalxonada sharoitidagi bola uchun test topshirish qo'shimcha psixologik bosim bo'lishi mumkin, shuning uchun bilim darajasini aniqlashning empirik yo'li – bevosita faoliyatni kuzatishdir. O'qituvchi bola bilan birgalikda biror masalani yechish, loyiha ustida ishlash yoki ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida uning mantiqiy fikrlashi va bilimlar bazasini baholaydi. Bu usul bolaga o'zini tekshirilayotgan emas, balki yaratayotgan shaxs sifatida his qilishiga yordam beradi. Diagnostikaning bunday shakli ta'limiy bo'shliqlarni aniqroq ko'rsatish bilan birga, bolaning o'z-o'zini baholash darajasini ham oshiradi.

Art-terapevtik tahlil metodi gospital pedagogikasida bolaning ichki "men"ini o'rganish va uning yashirin emotsional muammolarini aniqlashda eng samarali vositadir. Bola o'zining og'rig'i, qo'rquvi yoki kelajakka bo'lgan umidlarini har doim ham so'z bilan ifodalab bera olmaydi, biroq chizilgan rasmlar, yasalgan shakllar yoki ranglar tanlovi uning ruhiy holatidan darak beradi. Empirik tahlil jarayonida pedagog yoki psixolog bolaning asarlaridagi simvollarni o'rganib, undagi tushkunlik yoki motivatsiya darajasini baholaydi. Art-terapiya nafaqat diagnostika vositasi, balki bolaning emotsional kuchlanishini bo'shatuvchi va unga ruhiy xotirjamlik bag'ishlovchi reabilitatsiya usuli hamdir. Mazkur metod orqali to'plangan ma'lumotlar bolaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini tuzishda muhim ashyoviy dalil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, gospital sharoitidagi empirik metodlar majmuasi ta'lim va rehabilitatsiyaning yaxlitligini ta'minlaydi. Klinik kuzatuv, amaliy diagnostika va art-terapevtik tahlil o'zaro uyg'unlashgan holda, o'qituvchiga bolaning hozirgi holati haqida to'liq tasavvur beradi. Bu metodlar shunchaki ma'lumot yig'ish emas, balki og'ir xastalikka chalingan bolaning hayot sifatini yaxshilash va uning ta'lim olishga bo'lgan huquqini to'laqonli ro'yobga chiqarish mexanizmidir. To'plangan empirik tajriba asosida shakllantirilgan pedagogik yondashuv har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlariga eng yuqori darajada moslashishni kafolatlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, empirik tushunchalar gospital pedagogikasida shunchaki ma'lumotlar to'plami emas, balki o'qituvchi va xasta bola o'rtasidagi o'zaro ishonch va tushunishga asoslangan jonli ko'priklarni vazifasini o'taydi. Nazariy bilimlar umumiy yo'nalishni ko'rsatsa-da, aynan empirik kuzatuvlar bolaning o'zgaruvchan klinik holati, emotsional ehtiyojlari va yashirin imkoniyatlarini kashf etishga imkon beradi. Gospital sharoitida ta'lim jarayonining muvaffaqiyati pedagogning ushbu empirik dalillarni qanchalik tez va to'g'ri tahlil qila olishiga, shuningdek, dars metodikasini bolaning jismoniy hamda ruhiy quvvatiga moslashtira olishiga bog'liqdir. Shu tariqa, empirik yondashuv kasalxonadagi o'quv muhitini oddiy darsxonadan rehabilitatsion va terapevtik maydonga aylantirib, bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bo'lajak gospital pedagoglar uchun amaliy tavsiya sifatida, har bir o'quvchi uchun individual kuzatuv kundaligini yuritishni tizimlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu kundalikda nafaqat bolaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, balki uning dori muolajalaridan keyingi faollik darajasi, art-terapiya mashg'ulotlaridagi kayfiyati va sub'ektiv qo'rquvlarining dinamikasi qayd etib borilishi lozim. Shuningdek, pedagoglarga dars jarayonida mikro-tanaffuslar va vizual-didaktik o'yinlardan keng foydalanish, bolaning har bir kichik muvaffaqiyatini empirik tarzda rag'batlantirish tavsiya etiladi. Psixolog va shifokorlar bilan muntazam ma'lumot almashish, to'plangan empirik materiallar asosida ta'limiy trayektoriyani korreksiya qilish gospital pedagogining kasbiy mahoratini oshirish bilan birga, bemor-o'quvchining ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasini sezilarli darajada jadallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimova A.H. Empirik ma'lumotlar turlari // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2026-yil, mart. – 292–296-betlar.
2. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2008-yil. – 316 b.
3. G'oziyev E.G'. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 2008-yil. – 352 b.
4. Куртанова Ю.Е. и др. Когнитивные, эмоциональные и социальные особенности детей младшего школьного возраста с онкологическими заболеваниями // Московский государственный психолого-педагогический университет. – 2023-yil. – 6-bet.
5. Mavlonova R.A. va boshq. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018-yil. – 528 b.
6. Nishanova Z.T. va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Darslik. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2018-yil. – 600 b.
7. O'rozov Sh. va boshq. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv bilish darajalarining o'zaro aloqasi va farqi // Journal of Marketing, Business and Management (JMBM). – Vol. 3, Issue 8. – 6–30-betlar.
8. Psixologiya va pedagogika asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014-yil. – 116 b.
9. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – Toshkent: "Iqtisodiyot dunyosi", 2018-yil. – 190 b.
10. Yusupova Sh.J. Empirik materiallarni yig'ish va o'rganish // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022-yil. – Vol. 2, Issue 5/2. – 1083–1088-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.